Jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish yuzasidan davra suhbati o‘tkazildi

Farg‘ona shahridagi 12-o‘rta ta’lim maktabida jinoyatchilik va huquqbuzarlikni oldini olish bo‘yicha jinoiy ishlar bo‘yicha Farg‘ona shahar sudining sudьyasi K.Rahimov va sudьya yordamchisi A.Erkaboyev ishtirokida 2021 yilda maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etilgan jinoyatlar muhokamasi hamda jinoyatchilik va huquqbuzarlikni oldini olish bo‘yicha davra suhbati o‘tkazildi.

Unda pedagog xodimlar va 8-11-sinf o‘quvchilari ishtirok etishdi. Tadbir davomida mutaxassislar tomonidan qonunchiligimizda belgilangan me’yorlar, sodir etilgan jinoyat bo‘yicha javobgarliklar to‘g‘risida ma’lumotlar berildi. O‘quvchilar tomonidan berilgan savollarga mutaxassislar javob berishdi.

Shuningdek, davra suhbati davomida o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar ham berildi.
2022-05-24 17:47:35